

Tolibova Madinaxon Toyirjon qizi

FarDU mustaqil izlanuvchisi

e-mail: tolibovamadinaxon29@gmail.com

ORCID: 0009-0001-1278-8814

Annotatsiya: *Maqolada yozuvchi Isajon Sultonning hikoyanavislik mahorati ochib berilgan. Hikoya janriga xos xususiyatlar, syujet qurilishi adib hikoyalari tahlili asosida asoslangan. “Oydinbuloq” hikoyasi syujeti unsurlarini tahlil qilish orqali Isajon Sultonning individual uslubi yoritilgan. Maqolada analitik, psixologik tahlil, tavsiflash va germenevtik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.*

Abstract: *The article reveals the story-writing skills of the writer Isajon Sultan. The characteristics of the story genre and the plot structure are based on the analysis of the writer's stories. The individual style of Isajon Sultan is highlighted by analyzing the plot elements of the story "Oydinbulok". The article uses analytical, psychological analysis, descriptive and hermeneutic research methods.*

Аннотация: *В статье раскрывается писательское мастерство писателя Исаджона Султана. Характерные особенности жанра рассказа, построение сюжета основано на анализе литературных рассказов. Индивидуальный стиль Исаджона Султана выявляется на основе анализа сюжетных элементов повести «Ойдынбулок». В статье использованы аналитический, психологический анализ, описательный и герменевтический методы исследования.*

Kalit soʻzlar: *Hikoya janri, syujet, uslub, badiiy mahorat, obraz, portret.*

Keywords: *Story genre, plot, style, artistic skill, image, portrait.*

Ключевые слова: *Жанр рассказа, сюжет, стиль, художественное мастерство, образ, портрет.*

Kirish

Hikoyalar kichik hajmli, syujeti sodda, personajlar soni kam boʻlgan epik tur janridir. Adabiyotshunoslikka oid lugʻatilarida hikoyaning janr xususiyatlari quyidagicha taʼriflangan: “...odatda, qahramon hayotidan bitta (baʼzan bir-biriga uzviy bogʻliq, qisqa muddat davomida kechgan bir nechta) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kichik, syujeti sodda, ishtirok etuvchi personajlar soni kam boʻlishini taqazo etadi... Hikoya asosida yotgan voqeaning yaxlit, tugal boʻlishi talab etiladi. Buning uchun u oʻzining boshlanishi va yakuniga ega boʻlishi... lozim. Yaxlit voqeani tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeaning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ochib beradi” [1]. Har bir yozuvchi hayotiy voqeliklar asosida xarakterlarni yaratar ekan, davr va qahramonlar qiyofasidagi jonlilikni, ulardagi tafsil va ifodalarni mantiqan asoslashga intiladi. Shunday



ekan, hayotiy talqinlarda syujet muhim o‘rin tutib, qahramonlar va personajlarning haqqoniy tasviridagi ahamiyati kattadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirjavob janr hisoblanuvchi hikoyalar o‘ziga xos syujet qurilishiga egadir. Syujet haqida bir qancha nazariy qarashlar mavjud. Syujet badiiy asarning bevosita mazmunini tashkil etib, o‘zaro bog‘langan va rivojlanib boruvchi hayotiy voqealar tizimidir. Xarakter bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan, badiiy ijodning muhim komponentlaridan biri. Jahon adabiyotshunosligida G.N.Pospelov [2], R.Uellek, O.Uorren [3], V.Xalizev [4] kabi qator olimlar syujetga xos xususiyatlar haqida fikr yuritgan. Xususan, V.Xalizev syujetni shunday ta’riflaydi: “adabiy asarda tasvirlangan voqealar silsilasi, ya’ni personajlarning makon va zamon o‘zgarishlarida, bir-biri bilan almashinuvchi holat va sharoitlarda kechuvchi hayoti”[4] dir.

O‘zbek adabiyotshunosligida akademik Izzat Sulton asarda hikoya qilinayotgan voqea syujet ekanligini ta’kidlasa [5], T.Boboyev [6], E.Xudoyberdiyev [7], H.Umurov [8] kabi adabiyotshunos olimlar syujetni badiiylikni belgilovchi xususiyatlardan biri, deb talqin qiladilar. D.Quronov esa syujetning eng muhim funksiyasi haqida fikr yuritib, badiiy konsepsiyani shakllantirish va ifodalashga xizmat qilishida namoyon bo‘lishini ta’kidlagan [9].

NATIJA VA MUHOKAMA

Yozuvchi o‘z g‘oyaviy maqsadiga muvofiq obrazlar tanlaydi va shu obrazlarning o‘zaro munosabatidan kelib chiquvchi voqealar silsilasini beradi. Obrazlarning o‘zaro munosabatidan, kurashidan kelib chiquvchi, xarakter xususiyatini namoyon qiluvchi voqealar silsilasi syujetdir. “Syujetda hayot uchun eng muhim bo‘lgan to‘qnashuvlar, qarama-qarshiliklar va kishilarning o‘zaro munosabati aks etadi” [10, 212]. Bevosita asarning boshlanmasi, o‘rtasi hamda tugallanmasi kabi shakliy unsur komponentlari uyushib yaxlitlikning yuzaga kelishini ta’minlashi haqidagi qarashlar ifodalangan. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da hikoyaning janr xususiyatlari haqida quyidagicha ma’lumot beriladi: “...odatda, qahramon hayotidan bitta (ba’zan bir-biriga uzviy bog‘liq, qisqa muddat davomida kechgan bir nechta) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kichik, syujeti sodda, ishtirok etuvchi personajlar soni kam bo‘lishini taqazo etadi... Hikoya asosida yotgan voqeaning yaxlit, tugal bo‘lishi talab etiladi. Buning uchun u o‘zining boshlanishi va yakuniga ega bo‘lishi... lozim. Yaxlit voqeani tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeaning, yo uning vositasida xarakterning mohiyatini ochib beradi” [1; B.339.]. Shuningdek, “Odatda ko‘pchilik hikoyalarning syujeti siqiq, voqealar muallifning estetik niyati atrofida maksimal darajada markazlashtirilgan bo‘ladi. Syujetning tezkor o‘sishi zarurati undagi personajlarning kam soni bo‘lishini taqazo etadi... Hikoyada epizodik personajlar deyarli bo‘lmaydi, agarda kiritilsa ham syujet rivojiga turtki berib bo‘lishi bilan tasvir doirasidan chiqib ketadi. Hikoyada yondosh syujet chizig‘i, muallif chekinishlari bo‘lmaydi hisob, qahramonning ham ko‘proq hoziri tasvirlanadi, uning o‘tmishi syujet rivoji uchun g‘oyat zarur hollardagina qalamga olinadi...” [11, 244-245]. Shu bilan birga, “Hikoyada tasvirlangan voqea o‘z mohiyati va ahamiyati jihatidan epik turning roman, povestъ kabi janrlaridan farqlanmasa ham, biroq tasvirning ko‘lami, syujeti va

kompozitsiyaning nisbatan soddaligi, bayonning asosan bir shaxs tomonidan olib borilishi jihatidan farqlanib turadi” [11, 244-245].

Isajon Sulton hikoyalaridagi syujet qurilishi ham ana shu jihatlari bilan o‘ziga xos va betakroridir. Masalan, yozuvchining “Oydinbuloq” hikoyasidagi voqealiklar hikoya qahramonining buloq boshidagi xotiralari tasviri bilan bog‘liq. Buloq qahramonga bolalik xotiralari bilan birga pokiza muhabbatini ham yodiga soladi.

Badiiy asar syujeti unsurlaridan biri ekspozitsiya bo‘lib, “Oydinbuloq” asari ekspozitsiyasi o‘quvchini buloq tasviri epizodlari bilan tanishtiradi. “Bu buloq bolaligimdan beri bor. Suvi kumushday. Miltillab oqib yotadi. Bolalik chog‘larimda issiq nonni shu buloq suviga botirib yer edim. Bu bujurtol u mahallar juda ulkan edi. Shoxlarida dunyoning jami qushlari chug‘urlab yotishar edi. Qirg‘og‘ida olamda yo‘q maysalar o‘sar, ular taratgan bo‘y ham Jannat bo‘yi monand edi” [13, 399]. “Ekspozitsiya syujetning boshlanish qismi bo‘lib, o‘quvchini asar voqealari kechadigan joy, qahramonlar, asar konflikti yetilgan shart-sharoitlar bilan tanishtiradi” [9, 121]. Demak, hikoyada tasvirlangan makon, joy bu – buloq bo‘lib, asar voqealari ayni shu buloq boshida kechadi.

Hikoya qahramonining buloq boshida Parizodni daf‘atan uchratib qolishi asar tugunidir. Muallif uslubiga xos jihatlardan biri shuki, hikoyadagi obrazlarni tasvirlashda portret dan mohirona foydalanadi. Bu esa hikoya bosh qahramonining ruhiy olamini yorqin ko‘rsatishga xizmat qiladi. Yozuvchi Parizod obrazining portretini shunday tasvirlaydi: “Oydinbuloq yonida bir pari turar edi. Uning libosi... Nimasini aytay, yer qizlari bunday libosni tushlaridayam ko‘rmaydilar. Ko‘zlari yulduz edi. Bunday fusunkor ko‘zlarni olamda faqat men ko‘rganman. Boshqalar ham ko‘rganlarida, xuddi men kabi devona bo‘lar edilar” [11, 400]. Yozuvchi portret tasviridayoq o‘quvchi tasavvurida go‘zal qiz obrazini jonlantiradi. U, asosan, portret yaratishning statik usulidan foydalanadi. Obrazga tanlangan ism – Parizod ham muallif g‘oyaviy niyatiga monand. Bu holat yozuvchining o‘zbek xalq og‘zaki ijodi an‘analaridan mahorat bilan foydalanganligini Parilar xalq ertaklari va dostonlaridagi nihoyatda go‘zal sanamlardir. Yana shuni aytish kerakki, pariga inson bolasi yetisholmaydi, chunki ular inson zotidan emas. Oshiq yigit “samoviy malak oldida” tosh qotadi, uning xayoliga parilarning tilsimi ro‘molida bo‘lishi, agar ro‘moli qo‘lga kiritilsa hech qayoqqa uchib ketolmasligi kabi o‘ylar keladi. Lekin o‘n yetti yoshli oshiq “pariga ro‘molini” tutqazadi va u “ko‘kka parvoz qiladi”. Ko‘rinadiki, hikoya ohangi ham o‘quvchini sekin-asta voqealar rivoji oqimida oshiqning taqdirini avvaldan his qilib borishga undaydi. Ana shu voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, ya‘ni kulminatsiyasi oradan yillar o‘tib, hikoya qahramonining yana Parizod bilan to‘qnash kelib qolishi epizodidir. “Shunday o‘ylar bilan borayotsam, o‘ngdagi darvoza g‘iyq etib ochildi-da, bir qo‘lida go‘dagini ko‘targan, bir qo‘li bilan qizalog‘ini yetaklagan bir juvon chiqib keldi. Beixtiyor unga qaradimu... Yopiray! Tomog‘im quruqshab, yuragim hapriqib ketdi. Muncha o‘xshamasa? Parizod? Parizodmi u?! Qoshu ko‘zlari o‘sha-o‘sha, yuzlar o‘sha-o‘sha, nigohida ham o‘sha so‘lim, nafis, tushdagiday sirli qizni eslatadigan nimadir bor...” [11, 403]. Asar kulminatsiyasi voqealarning yechimga tomon borishini taqozo qiladi, yechim esa syujet voqealari rivojining yakuni hisoblanadi. Hikoya nihoyasida esa bosh qahramonning ruhiyatida yuzaga kelgan holat – umrning betinim daryoday oqishi badiiy yechimini topgan. Agar mazkur

“Oydinbuloq” hikoyasiga diqqat qaratilsa, asar syujetning “ichki harakat dinamikasi” asosiga qurilganligi ayon bo‘ladi. Chunki hikoyada asar qahramonining xotiralari va ruhiyatidagi o‘zgarishlar tasviri yetakchilik qiladi. Ya’ni asar qahramonining “qalb dialektikasi” (N.G.Chernishevskiy) – dilidagi murakkab kechinmalar va tuyg‘ulari chuqur ifodalanadi.

Hikoyaning ekspozitsiyasida “Buloq ko‘zchasiga bitta yaproq tushib qolibdi, girdobdan chiqib ketolmay, chirillab aylanyapti” degan jumla keltirilgan. Mazkur jumla voqealar rivojida hamda hikoya yechimida ham takroran qo‘llanilgan. Shuningdek, hikoyaning songgi satri ham “Sezyapsizmi, Oydinbuloqda bir yaproq chirillab aylanayotir...” jumlasini bilan yakunlangan. Bu esa “Oydinbuloq” hikoyasining o‘ziga xos kompozitsion qurilishi bo‘lib, muallif badiiy konsepsiyasini ochishga xizmat qilgan.

Xulosa

Isajon Sulton badiiy mahoratiga xos jihatlardan biri hikoyalari syujetini “ichki harakat dinamikasi” asosiga qurishidir. Adibning “Oydinbuloq” hikoyasi qahramoni xotiralari va ruhiyatidagi evrilishlar tasvirida ham syujetning ichki harakat dinamikasi yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B.339.
2. Пospelov Г.Н. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978. – С.110.
3. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978.
4. Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2002. – С.249.
5. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – 343 б.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B.124.
7. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 368 б.
8. Умуров Х. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 256 б.
9. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Noshir, 2019. – B.117.
10. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970. – B. 212.
11. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslari. –Toshkent: Kamalak, 2016. –B.244-245.
12. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1983. –B.310.
13. Исажон Султон. Озод. Роман ва хикоялар. – Тошкент: “SHARQ”, 2012. – 432 б.